



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI

Nosirov Jasur Tursunpulotovich

PhD, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi  
Email: [arajiasur@gmail.com](mailto:arajiasur@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro sug'urta bozorlarida qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, xususan riskga asoslangan nazorat (risk-based supervision), kapital yetarliligi talablari, qayta sug'urtalash mexanizmlari hamda komplayens va korporativ boshqaruv tizimlarining o'рни yoritilgan. Yevropa Ittifoqida amal qiluvchi Solvency II tizimi, AQSh va Buyuk Britaniyada qo'llanilayotgan prudensial nazorat mexanizmlari hamda xalqaro standartlar asosida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash amaliyoti tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tajribaning afzalliklari va ularning sug'urta kompaniyalari faoliyatiga ta'siri baholanib, ushbu tajribalarni milliy sug'urta bozoriga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash, risklarni samarali boshqarish va bozor barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy natijalar sug'urta sektorini rivojlantirish hamda uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy risk, sug'urta kompaniyasi, risk-menejment, Solvency II, IAIS, stress-test, senariy tahlili, aktuariy modellash, moliyaviy barqarorlik, prudensial nazorat.

**Abstract:** This article comprehensively analyzes the experience of developed foreign countries in ensuring the financial security of insurance companies. The study highlights the role of modern management approaches used in international insurance markets, in particular, risk-based supervision, capital adequacy requirements, reinsurance mechanisms, and compliance and corporate governance systems. The Solvency II system in force in the European Union, the prudential control mechanisms used in the USA and the UK, and the practice of ensuring the financial stability of insurance companies based on international standards are analyzed. The article also assesses the advantages of foreign experience and their impact on the activities of insurance companies, and substantiates the possibilities of adapting these experiences to the national insurance market. As a result of the study, practical proposals and recommendations were developed to strengthen the financial security of insurance companies, effectively manage risks, and ensure market stability. These scientific results are of great importance in developing the insurance sector and increasing its competitiveness.

**Keywords:** financial risk, insurance company, risk management, Solvency II, IAIS, stress test, scenario analysis, actuarial modeling, financial stability, prudential supervision.

**Абстрактный:** В данной статье всесторонне анализируется опыт передовых зарубежных стран по обеспечению финансовой безопасности страховых компаний. В исследовании освещаются современные подходы к управлению, используемые на международных страховых рынках, в частности, риск-ориентированный надзор, требования к достаточности капитала, механизмы перестрахования, а также роль систем комплаенс и корпоративного управления. Проанализирована практика обеспечения финансовой устойчивости страховых компаний на основе системы Solvency II, действующей в Европейском Союзе, механизмов prudential control, используемых в США и Великобритании, а также международных стандартов. Также в статье оцениваются преимущества зарубежного опыта и их влияние на деятельность страховых компаний, а также обосновываются возможности адаптации этого опыта к национальному страховому рынку. В результате исследования были разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на укрепление финансовой безопасности страховых компаний, эффективное управление рисками и обеспечение стабильности рынка. Эти научные результаты важны для развития страхового сектора и его конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** финансовый риск, страховая компания, риск-менеджмент, Solvency II, IAIS, стресс-тест, сценарный анализ, актуарное моделирование, финансовая устойчивость, prudential control.

### Kirish (Введение/Introduction).

Sug'urta bozori zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiyotda risklarni qayta taqsimlash, investitsion resurslarni shakllantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, global moliyaviy integratsiya, raqamli transformatsiya va risklarning murakkablashuvi sharoitida sug'urta kompaniyalarining barqaror faoliyat yuritishi nafaqat ularning o'z manfaatlari, balki butun moliyaviy tizim xavfsizligi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sug'urta kompaniyasi moliyaviy xavfsizligini ta'minlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda riskga asoslangan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, Solvency II tizimi doirasida kapital yetarliligi (SCR, MCR), risklarni baholash va boshqarish mexanizmlari chuqur integratsiyalashgan. Shuningdek, International Association of Insurance Supervisors tomonidan ishlab chiqilgan Insurance Core Principles (ICP) sug'urta bozori barqarorligini ta'minlashda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar sug'urta kompaniyalari

moliyaviy xavfsizligini faqatgina moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki risk-menejment tizimi, korporativ boshqaruv sifati va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston sug'urta bozori uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Milliy sug'urta bozorining institutsional rivojlanish darajasi, kapital bazasining yetarliligi, investitsion faoliyat samaradorligi hamda risklarni boshqarish amaliyotining yetarli darajada shakllanmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni yanada dolzarb etadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyasi moliyaviy xavfsizligini baholash va ta'minlashning konseptual modelini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi sug'urta kompaniyasi moliyaviy xavfsizligining konseptual modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy elementlari, omillari va baholash mexanizmlarini tizimli ravishda asoslab berishdan iborat. Tadqiqot doirasida moliyaviy xavfsizlikning ichki va tashqi determinantlari, risklar tizimi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, taklif etilayotgan konseptual model

sug'urta kompaniyalarida moliyaviy xavfsizlikni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy asos sifatida qaraladi.

#### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Xalqaro ilmiy manbalarda esa moliyaviy vositachilik va risklarni boshqarish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, F. Allen va D. Gale moliyaviy vositachilar faoliyatining bozor barqarorligiga ta'sirini asoslab, sug'urta kompaniyalari faoliyatini umumiy moliyaviy tizim barqarorligi bilan bog'laydi [1]. D. Babel va C. Merrill foiz stavkalariga sezgir moliyaviy instrumentlarni baholash orqali sug'urta kompaniyalari aktiv va majburiyatlarini boshqarishning muhimligini ko'rsatadi [2]. M. Power esa zamonaviy iqtisodiyotda risk-menejmentning institutsional kengayishini tahlil qilib, barcha sohalarida, jumladan sug'urtada ham risklarni tizimli boshqarish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Sug'urta bozorini tartibga solish va xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan K. Froehlich hamda J. Grace va R. Klein ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular sug'urta xizmatlari iste'molchilari qarorlariga ta'sir etuvchi omillar va davlat nazorati mexanizmlarini yoritadi [5]. MDH mamlakatlari olimlari (Grachyov, Sivolapov, Kanatova, Seydakhmetov, Ivanova, Petrov) esa sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital yetariligi, likvidlik va risklarni diversifikatsiya qilish masalalariga urg'u beradi [6,7,8,9,10,11].

O'zbekistonlik olimlar, xususan X.M. Shennaev tadqiqotlarida milliy sug'urta bozorining rivojlanish xususiyatlari, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omillari va institutsional muammolar chuqur tahlil qilingan [12]. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda (Nosirov, Hamdamov, Nurmuratov) esa moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni kompleks boshqarish, korporativ moliyaviy menejment va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik yanada rivojlantirilgan [13,14,15]. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda integratsiyalashgan, riskka yo'naltirilgan yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

#### Tadqiqot maqsadi (Research objective, Цель исследования)

Mazkur tadqiqotda sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini baholash va uni takomillashtirish masalalarini o'rganishda umumiy ilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini baholashga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy risklarini baholashning zamonaviy metodologik yondashuvlari va xalqaro standartlarini o'rganish; sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlik monitoringini tashkil etish asosida xorijiy davlatlar tajribasidan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

#### Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

Xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri, moliyaviy xavfsizlik monitoringini samarali tashkil etish hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizlikni monitoringi zamonaviy korporativ boshqaruvning yangi shakllanayotgan funksiyalaridan biri desak ham bo'ladi.

Fikrimizcha, sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligi monitoringi – sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizlik darajasiga doir ma'lumotlarni to'plash, ushbu darajaga ta'sir etuvchi turli omillar ta'sirini tahlil qilish, hamda haqiqatdagi moliyaviy xavfsizlik darajasini optimal holatiga mos kelishini nazorat qilish tizimi. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizlik monitoringini amalga oshirish tartibi bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib, ushbu jarayonni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (1-rasm).

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizlik monitoringi deyilganda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish, tahlil qilish va prognoz qilish, taktik va strategik qarorlarni qabul qilish, shu bilan birga qabul qilingan qarorlarni samaradorligini baholash tushuniladi.

Moliyaviy xavfsizlik monitoringini samarali tashkil etilishi sug'urta kompaniyalar moliyaviy ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyasini kuzatish imkoniyatini yaratish bilan birga, strategik qarorlarni qabul qilishda ma'lumotlarni ishonchligi, tizimligi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash; boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida asoslash uchun tezkor tahlilni amalga oshirish; moliyaviy rejalashtirishga doir sifatli ma'lumotlarni olish; bankrotlik holatlarini oldindan aniqlash hamda sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini mustaxkamlashga qaratilgan moliyaviy sog'lomlashtirishga doir chora tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

1. Kompaniya moliyaviy va investisiya siyosati samaradorligining taxlili. Belgilangan strategik maqsadlarga erishishni hamda rejalashtirilgan ko'rsatkichlarni haqiqatda qay darajada bajarilganligi yoki bajarilmaganligini baholash, ichki moliyaviy zaxiralari va imkoniyatlarni aniqlash.

2. Kompaniya moliyaviy barqarorligining dastlabki taxlili, uning iqtisodiy imkoniyati, moliyaviy va tadbirkorlik risklarini monitoring qilish. Kompaniya byudjeti va biznes-rejaning bajarilishini baholash.

3. Kompaniya daromad va xarajatlarini prognoz qilish.

4. Kompaniya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining taxlili. Kompaniya majburiyatlari va boshqa qarz mablag'larining taxlili

5. Kompaniya pul oqimlarining tarkibiy tuzilishi, miqdori va barqarorligini taxlili. Moliyaviy qo'yilmalar tahlili.

6. Makroiqtisodiy omillar, sug'urta bozori kon'yunkturasi, raqobat darajasi hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining kompaniya faoliyatiga ta'sirini baholash.

7. Kompaniya faoliyatining umumiy holati va bozordagi o'rnini monitoringi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi va moliyaviy-investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonlarining taxlili. Kompaniya ijro organi rahbarlari, menejmlarning faoliyati va bozordagi obro'sini (reputatsiyasini) baholash.

#### 1-rasm. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini monitoringini amalga oshirish tartibi<sup>1</sup>.

Biz tomondan sug'urta kompaniyalarida moliyaviy xavfsizlik monitoringi mexanizmini tashkil etish jarayonida ko'plab davlatlarning tajribalarini o'rganish barobarida asosiy e'tiborni ushbu amaliyot bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega AQSh tajribalarini o'rganishga harakat qildik.

AQSh lari nafaqat sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini monitoringini tashkil etish balki moliyaviy xavfsizlikni baholashga doir ko'plab uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqqan davlat hisoblanadi. Aynan amerikaliklar sug'urtani fuqarolarning kundalik hayotiga eng chuqur va keng joriy qilganligidan tashqari, sug'urta kiluvchining o'z kapitali etarilgini baholash borasida moliyaviy xisobotning xalqaro standartlari singari mustaqil tizimini ishlab chiqqanlar. Mazkur uslubiyatning asosiy mohiyati xususiy kapital real miqdorini kompaniya amaliyotida foydalaniladigan ayrim normativ me'yorlar bilan solishtirish orqali uni tarkibiy baholashga asoslanadi hamda bugungi kunda moliyaviy risklarni baholash borasida qo'llaniladigan tizim Yevropada qo'llanayotgan tizimdan farq qiladi.

Xususiy kapitalning amaldagi (joriy) qiymati (RBC - Risk Based Capital) ko'rsatkichini hisoblashda, kompaniyalar amaliyotida uchrashi mumkin bo'lgan asosiy risklarning har bir turi e'tiborga olinadi: aktivlar qiymatining o'zgarish riski, sug'urta riski, daromadlilik me'yoring o'zgarish riski va tadbirkorlik riski. O'z navbatida, ta'kidlash lozimki moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga ayrim bilvosita ta'sir etuvchi quyidagi omillar hisobga olinmaydi xodimlarning malakasi, kompaniyaning tashqi muhit o'zgarishlarga moslashish imkoniyatlari, kelajakdagi stretegiyalar, aksiyadorlar va mulkdorlar ishonchligi, kompaniya uchun kapital

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bozorning ochiqligi, zaxiralari etarlicligi, sug'urta kiluvchining axborot infratuzilmasi samaradorligi, kompaniya tasarrufida bo'lgan ko'chmas mulk sifatini e'tiborga olinmaydi. Umuman olganda RBC ni aniqlash formulasi quyidagicha ko'rinishga ega:

Bu erda: SO-kompaniya sho'ba tashkilotlarida aktivlar qiymatining o'zgarish riski; S4a-biznes riski, Clo-boshqa aktivlar turlari bo'yicha aktivlar qiymatining o'zgarish riski; S3a-daromadlilik kamayish riski; Clcs-boshqa (sho'ba bo'lmagan) kompaniyalar oddiy aksiyalari bo'yicha aktivlar qiymati va ularning faoliyati sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan sho'ba tashkilotlar aksiyalari qiymatining o'zgarish riski; S2-sug'urta riski; SZb-hayotni sug'urta qilish jarayonidagi kredit riski; SZs-bozor riski; S4b-hayotni sug'urtalash bilan bog'liq boshqaruv xarajatlar riski.

Tahlil jarayonida hisoblangan RBC ko'rsatkichi TAS (Total Adjusted Capital – kapitalning normativ darajasi) qiymati bilan taqqoslanadi:

$$TAC=TOE+ABV+0,5*DP+STL$$

Bu erda: TOE-ustav kapitali va qo'shimcha kapital; ABV-aktivlar qiymatining o'zgarish zaxirasi; DP-dividend to'lovlari bo'yicha majburiyatlar; STL-qisqa muddatli majburiyatlar miqdori.

TAS va RBC ko'rsatkichlari aniqlangandan keyin, ularning qiymati o'zaro taqqoslanadi, shundan so'ng tartibga soluvchi va nazorat organlari sug'urta qiluvchi bilan bog'liq qaror qabul qiladi. O'zaro nisbat normativlari va boshqaruv-nazorat tashkilotlarining mos keluvchi qarorlarini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali keltirish mumkin (1-jadval).

Tahlil jarayonlarida xulosaga keldikki, sug'urta qiluvchining o'z kapitali etarliclik darajasini baholashda AQSh tizimining afzalliklari sifatida, 2000 ta aniq ko'rsatkichlar asosida muhim koeffitsientlar olinganligi hisoblanadi. Ulardan foydalanish nafaqat avvalgi tahlil davrlarida to'lovga qobillik va moliyaviy xavfsizlik bilan bog'liq muammolarga doir xulosa va takliflarni shakllantirish, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bankrotlik ehtimolligi va boshqa muammolarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

1-jadval

Sug'urta kompaniyalari kapitalining haqiqiy va me'yoriy darajasi nisbatining normativ qiymatlari<sup>2</sup>

Tartibga solish darajasi	TAS/RBC ning nisbati
Kompaniya	150%-200%
Tartibga soluvchi organlar	100%-150%
Ishonch asosida boshqaruv	70%-100%
Majburiy nazorat	< 70%

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash masalasi zamonaviy moliya tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, sug'urta qiluvchilarning to'lov qobiliyatini baholashda qo'llaniladigan Risk-Based Capital (RBC) tizimi xalqaro amaliyotda eng ishonchli vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv kompaniyaning kapital yetarlicligini risk darajasi bilan uzviy bog'liq holda baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, RBC metodologiyasining murakkabligi ham uning asosiy cheklovlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu ko'rsatkichni shakllantirish ko'p bosqichli hisob-kitoblar, keng qamrovli statistik ma'lumotlar hamda ayrim hollarda yopiq axborotlarga tayanishni talab etadi. Bu esa sug'urta kompaniyalarida moliyaviy xavfsizlikni baholash tizimini amaliyotga joriy etishda tarmoq xususiyatlari, makroiqtisodiy muhit va bozor rivojlanish darajasini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash moliyaviy xavfsizlikni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon bir qator muhim omillar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlash, sug'urta kompaniyasining moliyaviy mustahkamligini saqlash, to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, investitsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, moliyaviy vositachilik jarayonining uzluksiz ishlashi, barqaror sug'urta bozorini shakllantirish hamda umumiy moliyaviy tizimning tashqi zarbalarga bardoshlilikini oshirish asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy tizimda muhim institutsional subyekt sifatida alohida o'rin egallaydi. Birinchidan, ular moliya bozorlarining yirik institutsional investorlaridan biri bo'lib, investitsiya faoliyati orqali kapital bozorning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari banklar va boshqa moliyaviy institutlar bilan uzviy aloqada faoliyat yuritadi, shu sababli ularning moliyaviy holatidagi o'zgarishlar butun moliya tizimiga zanjirli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uchinchidan, ular xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining risklarini sug'urtalash orqali iqtisodiyotda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati ham moliyaviy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular odatda uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirganligi sababli moliya bozorlarida barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. Biroq ayrim holatlarda moliyaviy aktivlar qiymatining pasayishi kompaniyalarni majburiy sotuvlarga olib kelishi va bu orqali zarar ko'rish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli regulyatorlar tomonidan investitsiya faoliyatiga nisbatan ma'lum cheklovlar joriy etilib, yuqori sifatli va likvid aktivlarga ustuvorlik berilishi talab etiladi.

2-jadval

2018-2023 yillarda xorijiy mamlakatlarda jami sug'urta mukofotlarining ko'rsatkichlari (mln. AQSh dollari)<sup>3</sup>

№	Mamlakatlar	2023 yilda jami tushum	2018–2023 yillarda yillik o'rtacha ko'rsatkichi	Yillik o'rtacha o'sishi, foizda (2018-2023)
1.	Bahrayn	1 050	900	0.075
2.	Indoneziya	32 000	26 000	0.095
3.	Iordaniya	1 300	1 050	0.075
4.	Malayziya	22 500	19 000	0.060
5.	Pokiston	5 500	4 200	0.110
6.	Turkiya	24 000	18 500	0.085
7.	BAA	14 531	13 200	0.070

Amalgam oshiriladigan choralar tashkil etiladi. Kompaniya kapital amaldagi darajasi hisob-kitobini nazorat organlariga topshiradi. Shundan keyin nazorat vakillari uning miqdori mosligi bo'yicha qaror qabul qiladi. Kompaniya kapital amaldagi darajasi hisob-kitobini nazorat organlariga topshiradi. Nazorat vakillari qanday tuzatish kirish hollatlarida amalga oshirilishi haqida qaror qabul qiladi. Asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanganligini ta'minlash va sug'urta qiluvchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun mustaqil qadavirli barqarorlik ko'rsatkichlarini baholash va yillik o'rtacha o'sishi tahlil qilingan (2-jadval).

Nazorat organlari kompaniyaga bevosita nazorat o'rnatish huquqiga ega (ko'p mamlakatda boshqaruv yurisdiksiya) ta'kidlash mumkin, so'nggi yillarda ham sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha mamlakatlar kesimida sezilarli tafovutlar saqlanib qolgan. Xususan, Indoneziya, Malayziya va Turkiya sug'urta bozorlari hajmi jihatidan yetakchi o'rinlarni egallab, boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda. Jumladan, Indoneziyada sug'urta mukofotlari hajmi 30 mlrd. AQSh dollaridan oshgan bo'lib, bu mamlakatning katta aholisi, sug'urta xizmatlariga talabning ortishi hamda moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi bilan izohlanadi. Malayziyada esa sug'urta bozori nisbatan barqaror rivojlanib, 20 mlrd. AQSh dollaridan ortiq hajmga yetgan, bu esa mamlakatda sug'urta sektorining institutsional jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Turkiya sug'urta bozori ham so'nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, 24 mlrd. AQSh dollariga yaqinlashganini kuzatish mumkin. Bu esa iqtisodiyot hajmining kengayishi va sug'urta xizmatlarining diversifikatsiyalashuvi bilan bog'liq. BAA sug'urta bozori esa o'zining yuqori o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi: agar 2018 yilda 12,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, so'nggi yillarda 14–15 mlrd. AQSh dollariga yetib, barqaror rivojlanayotgan bozorlar qatoridan mustahkam o'rin egallagan.

<sup>2</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>3</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

3-jadval  
2018-2023 yillarda xorijiy mamlakatlarda hayot sug'urtasi ko'rsatkichlari (mln. AQSh dollari)<sup>4</sup>

No	Mamlakatlar	2023 yilda jami tushum	2018–2023 yillarda yillik o'rtacha ko'rsatkichi	Yillik o'rtacha o'zgarishi, foizda (2018-2023)
1.	Bahrayn	180	160	0.045
2.	Indoneziya	22 500	19 000	0.075
3.	Iordaniya	210	170	0.085
4.	Malayziya	15 000	13 200	0.055
5.	Pokiston	3 200	2 600	0.105
6.	Turkiya	2 800	2 200	0.095
7.	BAA	4 800	3 900	0.110

Boshqa tomondan, Bahrayn va Iordaniya kabi mamlakatlarda sug'urta mukofotlari hajmi nisbatan kichik bo'lib qolmoqda. Ushbu mamlakatlarda bozor hajmining cheklanganligi aholining kamligi, iqtisodiyot ko'lamining kichikligi hamda sug'urta xizmatlari penetratsiyasining pastligi bilan izohlanadi. Pokiston sug'urta bozori esa o'rtacha darajadagi o'sishni namoyon etib, so'nggi yillarda 5 mlrd. AQSh dollaridan oshgan va rivojlanish salohiyati yuqori bo'lgan bozorlar qatoriga kiradi. (3-jadval).

Hayot sug'urtasi bo'yicha tushumlarning yillik o'rtacha o'zgarishi BAA (0.1809%) va Pokiston (0.2058%)da boshqa mamlakatlarga qaraganda yuqori foizga ega. Bahrayn (-0.0097) esa salbiy ko'rsatkich qayd etganligini ta'kidlab o'tish lozim. Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, so'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda hayot sug'urtasi bozori sezilarli darajada kengaygan va mamlakatlar kesimida uning rivojlanish darajasi turlicha shakllangan. Xususan, Indoneziya va Malayziya hayot sug'urtasi mukofotlari hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Indoneziyada ushbu ko'rsatkich 22,5 mlrd. AQSh dollariga yetib, tahlil qilinayotgan mamlakatlar ichida eng yuqori natijani qayd etgan bo'lsa, Malayziyada bu ko'rsatkich 15 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, barqaror rivojlanayotgan sug'urta bozori mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu holat mazkur mamlakatlarda aholi sonining yuqoriligi, moliyaviy xizmatlarga talabning ortishi hamda hayot sug'urtasining jamg'arma instrumenti sifatida keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, BAA sug'urta bozori hayot sug'urtasi segmentida yuqori o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda ushbu mamlakatda hayot sug'urtasi mukofotlari hajmi 4,8 mlrd. AQSh dollariga yetib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 11 foizni tashkil etmoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarning bozorining diversifikatsiyalashuvi, yuqori daromadli aholi qatlamining kengayishi va investitsion sug'urta mahsulotlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Xuddi shuningdek, Pokiston va Turkiya

mamlakatlarida ham hayot sug'urtasi bozori jadal o'sib borayotganini kuzatish mumkin. Pokistonda 3,2 mlrd. AQSh dollariga, Turkiyada esa 2,8 mlrd. AQSh dollariga yetgan bo'lib, mos ravishda 10,5 foiz va 9,5 foizlik o'rtacha o'sish sur'atlari bilan rivojlanmoqda.

Boshqa tomondan, Bahrayn va Iordaniya mamlakatlarida hayot sug'urtasi bozori hajmi nisbatan kichik bo'lib qolmoqda. Bahraynda ushbu ko'rsatkich 180 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, Iordaniyada 210 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa ushbu mamlakatlarda sug'urta xizmatlari bozorining torligi, aholining kamligi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofotlarini qoplash uchun zarur bo'lgan sug'urta jamg'armasini yaratish uchun juda aniq hisob-kitob qilishlari zarur. Sug'urta kompaniyalarida daromadning shakllanishi yillik o'sishni ta'minlaydi, ammo bu bozorning haqiqiy imkoniyatlariga bog'liq. Bunda bir qator ta'sir etuvchi sabablar, xususan, aholi orasida sug'urta mahsulotlari to'g'risida ma'lumot etishmasligi, sotib olish qobiliyatining pasayishi, sug'urta mahsulotlarining jamiyatdagi roli sezilarli darajada emasligi va boshqalar sug'urta kompaniyalari nazorati ostida emasligini ta'kidlab o'tish lozim.

#### Xulosa (Conclusion, Заключение)

Xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini monitoringini samarali tashkil etish va amalga oshirishda "due diligence" tekshiruvidan keng foydalaniladi. Dyu dilidjens (ing.tilidagi-due diligence - "tegishli tekshiruv") – investitsion faoliyat bilan bog'liq turli moliyaviy risklarni baholash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish tushuniladi. Aynan sug'urta faoliyati bo'yicha dyu dilidjens tekshiruvini o'tkazish haqida to'htaladigan bo'lsak, bunda sug'urta faoliyatiga doir moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilishda alohida sug'urta turlari, ob'ekt bo'yicha ta'sir etuvchi risk omillarini baholash hamda uning oqibatlarini prognoz qilish tushuniladi. Dyu dilidjens tekshiruvini biznesni kompleks tadqiqot qilishning asosiy funksiyalaridan biri sanaladi. Mazkur mexanizm kontragentlar o'rtasida yirik bitimlarni tuzish va amalga oshirish bilan bog'lik holda mustahkam munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Dyu dilidjens tekshiruvini odatda biznesni yoki uning bir qismini sotib olayotganda yoki yirik ob'ektlarni sotib olish jarayonlarida foydalaniladi. Albatta ushbu jarayonlar odatda kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta'kidlash lozimki, mazkur jarayonda kompleks tahlilning murakkabligi sotib olinayotgan ob'ekt yoki biznesning ma'lumotlarini keng qamrovligi va ishonchligi bilan baholanadi. Bundan tashqari aniqlangan natijalar asosida kelgusida tuzilgan shartnomalarga doir risklarni minimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Xalqaro amaliyotda dyu dilidjens tekshiruvini quyidagi turlari mavjud bo'lib, ularning har biri ob'ekt bo'yicha tasnifiy belgilarni tadqiq etishga asoslanadi: yuridik dyu dilidjens tekshiruvini; soliq dyu dilidjens tekshiruvini; buxgalteriya dyu dilidjens tekshiruvini; moliyaviy dyu dilidjens tekshiruvini; marketing dyu dilidjens tekshiruvini.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari tomonidan strategiyalarni ishlab chiqishda ushbu mexanizmi joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va uni monitoring qilishda xalqaro tajribalardan foydalanish milliy sug'urta kompaniyalarimizda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotimizda sug'urta sektorini rivojlantirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. F. Allen & D. Gale (2000). Financial Intermediaries and Markets. *Econometrica*, 72(4), 1023-1061.
2. D. Babel & C. Merrill (1998). Valuation of Interest Sensitive Financial Instruments. *The Journal of Risk and Insurance*, 65(4), 613-637.
3. M. Power (2004). The Risk Management of Everything: Rethinking the Politics of Uncertainty. *Demos*.
4. Grace, M. F., et al. (2015). The Value of Investing in Enterprise Risk Management [https://www.researchgate.net/publication/229004630\\_The\\_Value\\_of\\_Investing\\_in\\_Enterprise\\_Risk\\_Management](https://www.researchgate.net/publication/229004630_The_Value_of_Investing_in_Enterprise_Risk_Management)
5. J. Grace & R. Klein (2009). Insurance Regulation in the United States: An Overview for Global Insurers. *The Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice*, 34(1), 28-53.
6. Грачев А.В. Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия. – М.: Финпресс, 2002. – 208 с.
7. Сиволапов С.Д. Финансовая устойчивость страховых организаций. – СПб.: Питер, 2005. – 256 с.
8. Сиволапов С.Д. (2005) Финансовая устойчивость страховых организаций. – СПб.: Питер, – 256 с.
9. Қанатов Г. (2010) Қазақстандағы сақтандыру компанияларының қаржылық тұрақтылығы. – Алматы: Экономика, – 198 б.
10. Сейдахметов Е. (2012) Сақтандыру нарығының қаржылық тұрақтылығы. – Астана: Фолиант, – 220 б.
11. Иванова О.Н. (2011) Финансовая устойчивость страховых компаний в Республике Беларусь. – Минск: Белорусский государственный экономический университет, – 174 с.
12. Петров А.В. (2013) Управление финансовой устойчивостью страховых организаций. – Минск: Вышэйшая школа, 2013. – 192 с.

<sup>4</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

13. Шеннаев Х.М. (2013) "Ўзбекистон сугурта бозори: назарий ва амалий жиҳатлар". - Тошкент: Иқтисод молия.
14. Носиров Ж.Т. (2023) "Сугурта компаниялари молиявий барқарорлигига таъсир этувчи омиллар ва уларни бошқариш босқичлари". - CEDR.uz
15. Ҳамдамов О.Н. (2021) "Акциядорлик жамиятлари молиявий барқарорлигини таъминлашда молиявий менежментнинг аҳамияти". - ITM.uz
16. Нурмуратов М. (2022) "Нархлар ва молиявий тизим барқарорлиги". - Bankers.uz
17. <https://lex.uz/docs/-5739117>
18. <https://lex.uz/docs/-4459802>
19. <https://lex.uz/uz/docs/4677911>